



WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL

SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, Sep., 2022

MDH davlatlarida (Rossiya va Qozog'iston) "ONLINE SHOPPING (ELEKTRON TIJORAT)" TIZIMINING TARTIBGA SOLINISHI

N. B. Karimova,

Chilanzor tumani davlat Xizmatlari markazi

katta mutaxassis O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri

e-mail: zokirovanilufar710@gmail.com

Annotatsiya

Yigirmanchi asrning so`nggi o`n yilligi iqtisodiy, siyosiy va madaniy qadriyatlar haqidagi an'anaviy tushunchani o`zgartirib, jahon iqtisodiyotida tub o`zgarishlar davri bo`ldi. Ushbu o`zgarishlarning muhim jihatlaridan biri bu iqtisodiyotning globallashuvi bilan uzviy bog`liq holda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi edi. Zamonaviy texnologik inqilob avvalgilaridan farq qiladi Agar o`tgan asrning boshlarida iqtisodiyotning rivojlanishi materiya va energiya kabi tushunchalar bilan bog`liq bo`lsa, bu safar uning rivojlanish istiqbollari makon, vaqt va bilim kabi fundamental tushunchalarni tubdan qayta ko`rib chiqish bilan bog`liq. Bularning barchasi mamlakat hayotini davlat boshqaruvi, xizmatlar ko`rsatishning yangi usullariga moslashtirishni talab qiladi, Ushbu tezisda esa elektron tijoratning paydo bo`lishi va ushbu munosabatga nisbatan soliq to'lash tizimi tatbiq etilishi va bu Rossiya va Qozog'istonda qanday amalga oshirilganligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: online shopping (elektron tijorat), soliq, soliq ma'muriytachiligi, huquqiy tartibga solish, Rossiya, Qozog'iston.

REGULATION OF THE "ONLINE SHOPPING (E-COMMERCE)" SYSTEM" IN THE CIS COUNTRIES (RUSSIA AND KAZAKHSTAN)

N. B. Karimova,

Senior Specialist Public Services Center

Chilanzar district, Tashkent, Republic of Uzbekistan

e-mail: zokirovanilufar710@gmail.com

Annotation

The last decade of the twentieth century was a period of radical changes in the world economy, changing the traditional understanding of economic, political and cultural values. One of the important aspects of these changes was the rapid development of Information Technology in close connection with the globalization of the economy. The modern technological revolution differs from the previous one if at the beginning



Website:

<https://wos.academiascience.org>



of the last century the development of the economy was associated with such concepts as matter and energy, this time the prospects for its development are associated with a radical revision of such fundamental concepts as space, time and knowledge. All this requires adapting the life of the country to new methods of public administration, provision of services, including business. With the advent of e-commerce, European countries and the United States took the lead, which is why the era, Times and global changes required it. And in this article we will talk about the emergence of e-commerce and the implementation of the tax payment system in relation to this attitude and how this is done in the United States and European countries.

Keywords: online shopping (e-commerce), tax, Tax Administration, Legal Regulation, Russia, Kazakhstan.

РЕГУЛИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ “ИНТЕРНЕТ-ШОППИНГ (ЭЛЕКТРОННАЯ КОММЕРЦИЯ)” В СТРАНАХ СНГ (РОССИЯ И КАЗАХСТАН)

Н. Б. Каримова,

Старший специалист Центра государственных услуг
Чиланзарского района Ташкент, Республика Узбекистан
e-mail: zokirovanilufar710@gmail.com

Аннотация

Последнее десятилетие XX века стало периодом радикальных перемен в мировой экономике, изменивших традиционное понимание экономических, политических и культурных ценностей. Одним из важных аспектов этих изменений стало стремительное развитие информационных технологий в тесной связи с глобализацией экономики. Современная технологическая революция отличается от предыдущей, если в начале прошлого века развитие экономики было связано с такими понятиями, как материя и энергия, то на этот раз перспективы ее развития связаны с радикальным пересмотром таких фундаментальных понятий, как пространство, время и знания. Все это требует адаптации жизни страны к новым методам государственного управления, предоставления услуг, в том числе бизнеса. С появлением электронной коммерции европейские страны и Соединенные Штаты взяли на себя ведущую роль, именно поэтому эпоха, Времена и глобальные перемены требовали этого. И в этой статье мы поговорим о появлении электронной коммерции и





внедрении системы налоговых платежей в связи с этим отношением и о том, как это делается в Соединенных Штатах и Европейских странах.

Ключевые слова: интернет-шоппинг (электронная коммерция), налогообложение, налоговое администрирование, правовое регулирование, Россия, Казахстан.

ROSSIYA

Rossiyaning yangi bozorlarda ulushi juda oz bo`lishiga qaramay, elektron tijoratni rivojlantirish uchun jiddiy tendensiyalar asosida rivojlanib boryapti. Elektron tijorat bozorining o`ziga xos xususiyati uning transchegaraviy tabiat, chunki tijorat faoliyatasi aslida chegaralarni bilmaydigan Internetda amalga oshiriladi. Shunday qilib, Rossiyada ham elektron tijorat **1997-yilda** paydo bo`ldi va u kitoblarni sotadigan books.ru nomli kitob do`konni edi. Ushbu sektor o`zining yuqori potensialini namoyish etdi, chunki u davlat ishtirokisiz o`sdi va so`nggi besh yil davomida yiliga **15-25%** o`sishi bilan muhim bozor omiliga aylandi. Bunday sharoitda savdo-sotiqa faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning muhim ahamiyati shundaki, mahsulotni uzoqdan sotish usuli bilan ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni va kommunal xizmatlar sifatini ta'minlash lozim edi. Davlat siyosatini shakllantirishda ushbu sohadagi faoliyatning tashkiliy-iqtisodiy shakllarini rivojlantirishning hozirgi tendensiyalari, elektron tijorat bilan shug`ullanuvchi tashkilotlarda iqtisodiy mexanizm shakllarining mavjud bo`lgan tipologiyalari hisobga olinishi zarur.

Elektron Rossiya Federal maqsadli dasturi 2010-yilga qadar bir qator dasturiy tadbirlarni amalga oshirishni maqsad qilgandi. Ushbu dasturning asosiy maqsadlari Rossiyada fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish huquqlarini ta'minlash, shuningdek, axborot texnologiyalarini joriy qilish va ommaviy tarqatish orqali iqtisodiyotning samaradorligini oshirishdan iborat edi. Yangi iqtisodiyot, elektron tijorat atamalari bilimga asoslangan iqtisodiyot tushunchasi bilan chambarchas bog`liqdir. Bunday iqtisodiyot tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda ajralmas qism sifatida bilimning o`sib borayotganligidan dalolat beradi.

Rossiyadagi elektron tijorat bozori segmentidagi ishtirokchilar soni, ularning elektron tijorat tizimlariga qiziqishi ortib bordi. **2009-yilda** Rossiyada elektron tijorat hajmi 110 milliard rublni tashkil etgan bo`lsa, **2010-yilda** bu qariyb 240 milliard rublni tashkil etdi va **200 foizga** oshdi. Shunday bo`lsa-da, bugungi kunda Rossiyada elektron savdo hajmi YaIMning **0,5% dan** kam, Yevropa va AQShda esa bu ko`rsatkich 14% dan 17% gacha. Bugungi kunda Rossiyada chakana savdoni



rivojlantirishda uchta asosiy yo`nalish belgilab olingan. Ular kompaniyalarning birlashishi va yangi do`konlarning ochilishi orqali savdo faoliyati bilan shug`ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarining kengayishi; iste`molchilarga yuqori sifatli tovarlarni arzon narxlarda taklif qilish usuli sifatida o`z brendlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, jamiyatni global axborotlashtirish munosabati bilan elektron tijoratni online shoppingning eng istiqbolli shakli sifatida rivojlantirish.


So`nggi o`n yil ichida Rossiyadagi masofaviy savdo bozori deyarli **20 baravar** o`sdi va 2010-yilda 394 milliard rublga etdi. **Savdo-sanoat palatasi mutaxassislarining fikriga ko`ra**, barqaror o`sish dinamikasiga qaramay, Rossiyaning chakana savdosida elektron tijoratning ulushi jahon darajasidan **1,5 baravar orqada**. Ushbu bozor hajmining qariyb yarmi online shoppingga to`g`ri keladi.

Elektron tijoratni tartibga soluvchi asosiy me`yoriy hujjatlar: “Iste`molchilar huquqlarini himoya qilish to`g`risida” gi Federal Qonunining tovarlarni sotishning masofaviy usuliga tegishli qismi, Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 497-moddasi Tovarlarni namunalar bo`yicha sotish va tovarlarni uzoqdan sotish usuli, Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 346-moddasi, “Shaxsiy ma`lumotlar to`g`risida” gi Federal qonunining 19-moddasi, “Reklama to`g`risida” gi Federal qonunining 8-bandi, “Tovarlarni masofadan turib sotish qoidalari”, “Shaxsiy ma`lumotlarni shaxsiy tizimlarida qayta ishlash paytida ularning xavfsizligini ta`minlash to`g`risida” gi Nizom. Rossiya Federatsiyasida savdo sohasidagi asosiy tushunchalarni va savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asoslarini belgilab beradi.

QOZOG`ISTON

Qozog`iston Respublikasi Milliy iqtisodiyot vazirligi elektron tijoratni rivojlantirish maqsadida 2018-2020 yillarda elektron tijoratni rivojlantirish bo`yicha yo`l xaritasini ishlab chiqdi va tasdiqladi.

Yo`l xaritasida asosiy yo`nalishlar belgilab olingan bo`lib, ular quyidagilardan iboratdir:



2018-yil 1-yanvardan boshlab (2023-yil 1-yanvargacha) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari yangi Soliq kodeksiga muvofiq soliq va soliq to`lovlarini daromadning 100 foizidan ozod qilish to`g`risida norma kuchga kirdi. Tovarlarni sotish bo`yicha tranzaksiyalar elektron shaklda amalga oshiriladi, tovarlar uchun to`lovlar yillik daromadning kamida 90 foizini naqdsiz to`lash yo`li bilan amalga oshiriladi, xaridor (oluvchi) o`z tovarlarini yoki yuklarni, kuryer va (yoki) pochta xizmatlarini yetkazib beradi.

Bundan tashqari, Elektron tijorat tushunchasini, sotuvchilar va vositachilar bilan onlayn-do`konlar tashkil qilishni tartibga soluvchi qoidalarni nazarda tutuvchi “Savdo faoliyatini tartibga solish to`g`risida”gi Qozog`iston Respublikasi qonuniga o`zgartirishlar kiritildi. Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish maqsadida qonunga sotuvchilar va vositachilarga iste'molchilarga Interne tresurslar orqali mahsulot to`g`risida ma'lumot berish, shuningdek iste'molchilarga tovarlarning xususiyatlari, to`lov shartlari, qaytarib berilishi va tavsifi to`g`risida aniq ma'lumot berish majburiyatini nazarda tutuvchi qoidani kiritish taklif etildi. Bundan tashqari, elektron tijoratning asosiy elementlaridan biri to`lov tizimiga katta ahamiyat berilyapti. Ushbu yo`nalishda tadbirkorlarning elektron tijoratdagi xarajatlarini kamaytirish maqsadida (naqd pulsiz to`lovlar uchun bank to`lovlari miqdori), ichki to`lov platformasini (ikkinchi darajali banklar bilan) joriy etish, to`lov tizimlarini takomillashtirish, shu jumladan mobil to`lovlarni soddalashtirilgan mexanizmini va xalqaro tajribani joriy etish Elektron hisobfakturalardan foydalanishga to`liq o`tishni ta'minlash uchun mobil to`lovlar uchun vositachilik haqini kamaytirish bo`yicha ishlar olib borilmoqda. Tadbirkorlarning raqamli va moliyaviy savodxonligini



oshirish maqsadida “**Atameken**” Qozog`iston Respublikasi Milliy Tadbirkorlar palatasi “**Elektron tijoratni qo`llab-quvvatlash**” xizmatiga yangi Elektron tijoratga kirish xizmatini joriy qilishni taklif qilmoqda. Biznes savodxonligini oshirish uchun “Kazpost” OAJ elektron tijorat markazlari negizida «radikal» onlayn-do`konlarni yaratish bo`yicha xizmatlarni taqdim etadi. **2018-yilda** “**Kazpost**” OAJ logistika infratuzilmasini rivojlantirish uchun **Ostona** va **Olmaota** shaharlarida ikkita logistika markazi va “**Fullfilment Center**” tashkil etildi. Qayta ishlangan posilkalar soni 5,148 milliondan 6 milliongacha 20 foizga, Qozog`istonda yetkazib berish muddati 15 kundan 6 kungacha va ma'lum ekspress pochta yo`nalishlarida 1 kungacha qisqartirilishi rejalashtirilgan.

2023-yilga kelib, elektron tijorat va unga aloqador sohalarda qo`shimcha **200 ming** ish o`rnlari yaratilishi kutilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga to`xtaladigan bo`lsak, 2018-yil ichida mamlakatda elektron chakana savdo 35 foizga, ulgurji savdo 32 foizga oshdi. 2018-yil oxirida ichki bozorda Internet orqali amalga oshirilgan savdo operatsiyalari 33,6% ga, 2017 yildagi 194,2 mlrd. dan 259,5 mlrd. ga o`sdi. Dastlabki prognozlarga ko`ra, 2025-yilda Qozog`istonidagi Internet-tranzaktsiyalar hajmi chakana savdoning 25 foizidan oshadi va 2 trln. Bugungi kunda 33000 kishi elektron tijorat orqali o`zlarining daromadlarini olishmoqda. Keyingi 6 yil ichida Internetda pul ishlaydigan qozog`istonliklarning soni 314 ming kishiga yetishi mumkin. 2018-yilda mamlakatda onlayn savdo orqali 2,32 million tranzaktsiya amalga oshirildi. 2025-yilda bu raqam 15 millionga yetishi kutilmoqda. Bugungi kunda ichki bozorda 1700 onlayn-do`kon va 20 elektron tijorat platformasi mavjud. Qozog`iston elektron tijorat bozori tuzilmasining 68 foizi tovarlar savdosи va 32 foizi xizmatlar. Elektron tijoratda qurilish materiallari, maishiy texnika, kosmetika, kiyim-kechak va poyafzallarga talab katta. Odamlar avia va temir yo`l chiptalarini sotib olishga, shuningdek madaniy tadbirlar va kommunal xizmatlar uchun to`lovlarni elektron shaklda to`lashga odatlanib qolgan.

2019-yil 2-aprelda «Ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish va savdo faoliyatini tartibga solish to`g`risida» gi qonun qabul qilingan.

Shunday qilib, qo`shni Qozog`istonda ham elektron tijorat rivojlanishi yuqori bosqichga ko`tarilishi uchun katta odimlar qo`yilmoqda. Bu esa ularning budgetiga, AKT sohasiga va mehnat munosabatlarida yangi ish o`rnlaringa ochilishiga ko`maklashadi.



WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL

SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, Sep., 2022

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Артемов Н.М. Финансово-правовое регулирование внешнеторговой деятельности. М., 2004.
2. Балабин В.И. Налоговое право: теория, практика, споры. М., 2002.
3. Бапхаева Ф.Х. Сравнительный анализ налоговых систем и его значение для совершенствования и реформирования налогового законодательства // Налоговый вестник. 2001. № 2.
4. Борисов Е.Ф. Экономическая теория. М.: ИНФРА-М, 2003.
5. . Бурдинский А.В. Интернет-банкинг: вчера, сегодня, завтра. // Мир Интернет, 2002. № 11.
6. Marcus Stelloh and Lilla Stack, December 2007. Taxation and Electronic Commerce. Paper presented at the Southern African Accounting Association Conference held on 25 – 28 June 2008 at Emperor`s Palace, Johannesburg PAPER - SAAA 09.4p
7. «Measuring Electronic Business Definitions, Underlying Concepts, and Measurements Plans». Government of the Unite States of America.
8. 13.10.1999 // <http://www.ecommerce.gov/ecomnews/e-def.html>
9. Борщев В. Г. становление и развитие предпринимательской деятельности в интернет-экономике. Диссертация кандидата экономических наук. СПб, 2004. С.16-17.



Website:

<https://wos.academiascience.org>